**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI REKTORI**
**BUYRUG'I**

4 .09. 2023 yil № 131-A Denov tumani

**Institutda xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarni o'tkazish to'g'risida**

Institutda ilmiy salohiyatini mustahkamlash, ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, tadqiqotchilar, magistrantlar, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga keng jalb etish hamda ilm-fan yo'nalishlari bo'yicha dolzarb muammolar va ularning yechimiga qaratilgan xalqaro va respublika anjumanlarini yuqori saviyada o'tkazish maqsadida

**B U YU R A M A N:**

1. Institutda ilmiy salohiyatini mustahkamlash, ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, tadqiqotchilar, magistrantlar, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga keng jalb etish hamda ilm-fan yo'nalishlari bo'yicha dolzarb muammolar va ularning yechimiga qaratilgan **ilovada** keltirilgan xalqaro va respublika anjumanlarini yuqori saviyada o'tkazilsin.

**2.** Kafedra mudirlari **zimmasiga** hududni rivojlantirishga qaratilgan dolzarb muammolar tanlab olinib, respublika va xorijiy olimlarni jalb qilgan holda ilmiy-amaliy anjumani yuqori saviyada tashkil etish;

-Ilmiy-amaliy anjumanda muhokama etilgan muammolar bo'yicha xulosalar tayyorlanib, ilmiy bo'limga topshirish;

- Anjumanga yig'ilgan maqolalar va tezislar ilmiy to'plam qilib, institut kutubxonasi va ilmiy bo'limga topshirish vazifalari yuklatilsin.

**3.** Bosh bug'alter F.Valixonov **zimmasiga,**

Xalqaro va Respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanlarni yuqori darajada o'tkazishdagi xarajatlarni to'liq chiqarib berish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu buyruqning nazoratini Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor **R.Mamajanov** zimmasiga yuklatilsin.

Ilova__ bet.

**Rektor** **G'.X.Raximov**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektorining
__4__ 09.2023 yildagi __131/4__-sonli buyrug'iga ilova

2023-yilda o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlar

## REJASI

| t/r | Mavzular nomi | Tadbir shakli | O'tkazilish joyi va sanasi | Ishtirokchilar soni | | Mas'ul kafedra |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Jami | Shu jumladan xorijiy ishtirokchilar | |
| 1. | O'quvchi-talaba kreativ faoliyatini rivojlantirish kontekstida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan fanlararo sinxron-asinxron foydalanish. | anjuman | Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti **2023 yil 29, 30-sentyabr** | 240 | 21 | Oliy matematika (Sobirova M.R), Fizika (To'raxonov F), Boshlang'ich ta'lim (Shukurov R) kafedralari |
| 2. | Rus tilini chet tili sifatida o'qitish sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar | anjuman | Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti **2023 yil 6, 7-oktyabr** | 210 | 24 | Rus tili va adabiyoti (Suvanov X ) Xorijiy til (Tangirov V, Xudoyqulov B) |
| 3. | O'zbekiston yoshlarini axborot urushi davrida mafkuraviy tajovuzlardan asrash | anjuman | Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti **2023 yil 17, 18-noyabr** | 200 | 18 | Tarix va falsafa, (Xo'janova T) O'zbek tili va adabiyoti (Amirqulov S), Ma'naviy-ma'rifiy bo'lim |

## 2023-yilda Respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar

## REJASI

| t/r | Mavzular nomi | Tadbir shakli | O'tkazilish joyi va sanasi | Ishtirokchilar soni | Mas'ul kafedra |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Mamalakatimizda uchinchi renessans g'oyasini keng targ'ib qilishda ijtimoiy-jumanitar fanlarning ahamiyati va o'rni | anjuman | Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti **2023 yil 15-sentyabr** | 225 | Tarix va falsafa, O'zbek tili va adabiyoti |
| 2. | Axborot texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalar va IT parkning oliy ta'limdagi o'rni | anjuman | Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti **2023 yil 5-dekabr** | 250 | Axborot texnologiyalari (Rajabov T), Raqamli iqtisodiyot (Turaboeva K), RTTM (Qo'zimuradov N) |